Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	
Цифровизация в дошкольном образовании: механизмы управления для повышения качества	2204
Иногамова Д. О.	
Bolalar serebral falajida bolalarning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya kompleksida – logopedik korrektsiya.....	2210
Xusniddinova Barno Xodjiakbarovna	
Maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadlari va chora-tadbirlari	2214
Ma’rifat Abdullayeva	
Tarbiyasi qiyin o’smirlar bilan ishlashda xatti-harakatlarning buzilishi va xarakter nuqsonlarining oldini olish hamda tuzatishning ilmiy asoslari.....	2218
Mamayusupova Iroda Xamidovna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o’rni	2224
Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari	2229
Mamatova Xusnora Eshquvatovna	
Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста	2232
Матчанова Камила Фарход кизи	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
Nazarova Asila Mamarasulovna	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
Rustamova Khurshida Yusupovna	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar	2266
Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li	
Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach.....	2271
Komola Khikmatullaevna Usmanova	
Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari	2275
Boymanov Jasur Isroil o'g'li	
O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi	2279
Jobborov Farxod Bo'riyevich	
Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi	2282
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari	2286
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi	
Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida)	2291
Tursunov Mirolim Ahmadovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.....	2296
Z. S. Muxtorova	
Abdulla Avloniy pedagogik asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati.....	2300
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi	2304
Choriyeva Barno Alisher qizi	
O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan konstruktiv fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim (kimyo fani misolida)	2307
Azamatova Dilafruz Saydiganiyevna	
Совершенствование медиаграмотности будущих учителей начальных классов на основе интерактивных методов и геймификации	2311
Пулатова Муниса Садриддиновна	
Talabalarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	2317
Abdumannatova Nargiza Abdumajidova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish	2320
Raxmatova Nodira Imamovna	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishning ahamiyati.....	2323
Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi	
ESG tamoyillarining global ta'lim siyosatidagi o'rni	2328
Tursunova Shahzoda Baxromovna	



Internet kommunikatsiya vositalarining yoshlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga va ularning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri	2334
Kamiljanova Malikaxon Ravshonbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish ...	2338
Yusupova Nozima Mahamadaliyevna	
Духовное воспитание и концепция совершенного человека в трудах Абдурахмана Джамии.....	2342
Каримов Жамшид	
Raqamli chalg'ish fenomeni sifatida fabbing: talabalarning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori tahlili...	2347
Matchanova Dilbar Yusupboyevna	
Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri.....	2350
Jabborova Malohat Azimovna	
Challenges and Limitations of Using AI in Language Teaching	2355
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Rus tilidagi tadqiqotlarning tarixshunoslik talqini	2358
Axmatov M. M.	
O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda "Keys-stadi" metodikasining ahamiyati	2362
Xasanov Mansur Abrarovich, Muxammadiev Umarali Sheraliyevich	
Umumta'lim maktablari musiqa darsida iqtidori o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari	2367
Ergashev Murodbek Ikromovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar.....	2370
Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna	
Bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda jadid ma'rifatparvarlari metodikasini takomillashtirishning ilmiy asoslari.....	2374
Mamaniyozov Shaxzod Abror o'g'li	
O'quv jarayoniga moslashuv ijtimoiy-psixologik muammo sifatida	2378
Sultanova Shahnoza Mirxalilovna	
Ingliz va o'zbek tillaridagi sifatlarning qiyosiy tahlili	2382
Raxmonova E'zoza Sherzod qizi	
Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish	2385
Karimov Ilhom Normamatovich, Alikulova Saodat Muxitdinovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	2389
Yaqubova Dinora Bahodirovna	
Ta'limning interfaol va innovatsion metodlari	2393
X. K. Qarshiboyeva	
Роль международных оценочных программ в оценке знаний учащихся.....	2396
Каландарова Дилноза Самандаровна, Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи	
Inkorporatsion topshiriqlarning texnologiya ta'limida fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati	2400
Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna	
O'zbek bolalar folklori tasnifi, janriy tarkibi va Oxunjon Safarov yondashuvi.....	2404
O'rinova Maftuna No'mon qizi	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilish	2409
Xudoykulova Nilufar Xamdorovna	
The Future of AI in English Language Teaching: Trends, Predictions, and Research Directions.....	2414
Mavlonova Sevinch Abdurkarim qizi	
Muhandis-texnik talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	2418
Nazarova Marg'uba Gulamovna	
Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari	2423
Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	2428
Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna	
O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili	2431
Mavlanova Saidaxon Umarovna	
Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	2436
Yuldashev Bahodir Narzullayevich	



Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo'llari	2439
<i>Tursunonova Nozima Ilxomovna</i>	
O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari	2447
<i>Axmedova Gavhar Faxriddinovna</i>	
Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan	2451
<i>Abduxamidova Muyassar</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish	2457
<i>Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'siri	2460
<i>Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li</i>	
Developing Coordination and Balance in Athletics	2464
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Intellect xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish	2476
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
<i>Imomov Sirojiddin Ilhomovich</i>	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca	2486
<i>Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli</i>	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
<i>Kadirova Gulnora Xasanovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish	2496
<i>Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida)	2501
<i>M. M. Qosimova</i>	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
<i>Maxmudjonov I. I.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
<i>Muminova Dilfuza Bahromjanovna</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi	2510
<i>Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi	2513
<i>Safarova Shahlo Shuhratali qizi</i>	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
<i>Saidova Dilduza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi</i>	
Developing Strength and Endurance in Wrestlers	2526
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
<i>Shermumaxamada Diyorakhon Nurmuhamad kizi</i>	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish	2535
<i>Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li</i>	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
<i>Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimetriyasini bartaraf etish	2543
<i>To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'Ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeomtsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Dilfuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafisini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhaxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov Toxir To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons tn the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	



MAKTABDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA VIRTUAL VA INTERAKTIV LABORATORIYALARDAN FOYDALANISH

Saidova Dilfuza Ergashovna

Qarshi davlat universiteti, katta o'qituvchisi

Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi

Qarshi davlat universiteti, 4-kurs talabasi

ORCID: 0009-0001-6932-3284

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitish jarayonida virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, afzalliklari hamda amaliy natijalari tahlil qilinadi. Virtual laboratoriyalar o'quvchilarga murakkab jarayonlarni xavfsiz, tejamkor va vizual muhitda kuzatish imkonini berishi, interaktiv muhit esa darslarning faollik darajasini oshirishi hamda o'quvchilarning mustaqil izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotda virtual simulyatorlar, interfaol platformalar va multimediya vositalaridan foydalanish natijasida o'quvchilarning axborot savodxonligi, algoritmik fikrlashi va amaliy ko'nikmalari sezilarli darajada oshishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, informatika o'qituvchilari uchun raqamli laboratoriyalarni dars jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: virtual laboratoriya, interaktiv laboratoriya, informatika ta'limi, raqamli texnologiyalar, simulyatsiya, axborot savodxonligi, interfaol o'qitish, o'quv jarayoni, pedagogik texnologiya, algoritmik fikrlash.

Abstract: This article examines the didactic potential, advantages, and practical outcomes of using virtual and interactive laboratories in teaching computer science in general education schools. It argues that virtual laboratories enable students to observe complex processes in a safe, visual, and cost-effective environment, while interactive platforms increase classroom engagement and foster independent inquiry skills. The study indicates that the use of virtual simulators, interactive platforms, and multimedia tools can significantly enhance students' information literacy, algorithmic thinking, and practical skills. Methodological recommendations for integrating digital laboratories into the instructional process are also proposed.

Key words: virtual laboratory, interactive laboratory, computer science education, digital technologies, simulation, information literacy, interactive learning, learning process, pedagogical technology, algorithmic thinking.

Аннотация: В статье анализируются дидактические возможности, преимущества и практические результаты использования виртуальных и интерактивных лабораторий в процессе преподавания информатики в общеобразовательных школах. Обосновано, что виртуальные лаборатории позволяют учащимся наблюдать сложные процессы в безопасной, наглядной и экономически эффективной среде, тогда как интерактивные платформы повышают уровень активности на занятиях и способствуют развитию навыков самостоятельного исследования. Отмечается, что применение виртуальных симуляторов, интерактивных платформ и мультимедийных средств способствует значительному развитию информационной грамотности, алгоритмического мышления и практических навыков обучающихся. Также представлены методические рекомендации по интеграции цифровых лабораторий в учебный процесс.

Ключевые слова: виртуальная лаборатория, интерактивная лаборатория, обучение информатике, цифровые технологии, симуляция, информационная грамотность, интерактивное обучение, учебный процесс, педагогическая технология, алгоритмическое мышление.

KIRISH

Zamonaviy raqamli rivojlanish jarayoni sharoitida umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitish jarayoni tubdan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal o'sishi o'quvchilardan nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishni, balki real amaliy muhitda mustaqil ishlash, tahlil qilish va muammolarni yechish ko'nikmalarini ham shakllantirishni zarur etadi. Bunday sharoitda virtual va interaktiv laboratoriyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish informatika ta'limi samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Virtual laboratoriyalar murakkab algoritmlar, dasturlash jarayonlari,

ma'lumotlarni qayta ishlash yoki kompyuter tizimlari faoliyatini an'anaviy sharoitda taqdim etish qiyin bo'lgan holatlarda o'quvchi uchun qulay, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqbul muhit yaratadi. Interaktiv laboratoriyalar esa o'quvchilar faol ishtirok etadigan, topshiriqlarni bevosita bajarish orqali o'rganish jarayonini chuqurlashtiradigan hamda motivatsiyani oshiradigan ta'lim vositasi sifatida ajralib turadi. Akademik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, interfaol va vizual simulyatsiyalar o'quvchilarning algoritmik fikrlash, mantiqiy tahlil hamda amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Shu nuqtai nazardan, maktab informatika darslarida virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtiradi, balki ularda axborot savodxonligi, kreativ yondashuv va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash madaniyatini shakllantiradi. Ushbu maqolada mazkur texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari, ularning dars jarayonidagi o'rni hamda amaliy qo'llanilishi ilmiy asosda yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlar va ilmiy maqolalar maktab hamda oliy ta'limda virtual va interaktiv laboratoriyalarning (virtual labs, VR/3D laboratoriyalar, simulyatsiyalar) o'quv jarayonidagi o'rni va samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. F. Jo'rayeva tomonidan yozilgan "The Role of Virtual Laboratories in Education and Their Impact on Students" nomli maqolada virtual laboratoriyalar ta'lim jarayonidagi muhim innovatsiya sifatida talqin etilgan ^[1].

Jeyson P. Dela Kruz, Marissa V. Lejano va Jericho Martinlarning "Virtual Laboratories in Enhancing Experimental Skills and Scientific Understanding among High School Learners" nomli tadqiqotida o'rta maktab o'quvchilari virtual laboratoriyalar orqali ilmiy tushunchalar, jarayonlar va tajriba usullarini yanada chuqurroq anglashlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarda eksperimental ko'nikmalar (o'zgaruvchilarni boshqarish, natijalarni tahlil qilish) hamda tushuncha darajasi sezilarli oshganligi qayd etilgan ^[2]. J. S. Otepbergenovning informatika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bag'ishlangan maqolasida informatika ta'limida interaktiv vositalar, virtual laboratoriyalar va raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalarning o'quvchilarni bilim olishga jalb etishdagi o'rni hamda ta'lim sifatini oshirishdagi ta'siri ilmiy asosda yoritilgan ^[3].

F. Jo'rayeva va S. Maslaidinovaning virtual laboratoriyalar va ularning o'qitish jarayonidagi o'rni haqidagi maqolasida fanlarni o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning ahamiyati, imkoniyatlari, afzalliklari va ayrim cheklavlari batafsil bayon etilgan ^[4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Stanford universitetida o'tkazilgan 2022-yildagi virtual simulyatsiya tadqiqoti natijalariga ko'ra, virtual laboratoriya orqali algoritmlarni modellashtirish o'quvchilarning mavzuni idrok etish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Simulyatsiya asosida ishlagan o'quvchilarda algoritmlarni tahlil qilish, xatoni aniqlash va uni tuza-tish ko'nikmalari an'anaviy guruhga nisbatan ikki baravar yuqori ekani qayd etilgan. Amaliy jihatdan bu holat virtual vizualizatsiyaning algoritmik fikrlashni shakllantirishda, ayniqsa murakkab shart operatorlari yoki takrorlanishlar mavzulari o'tilganda, kuchli vosita bo'lib xizmat qilishini anglatadi. 2021-yilda Scratch platformasi asosida tashkil etilgan laboratoriya mashg'ulotlari o'quvchilarda dasturlashning mantiqiy strukturasi, bloklar o'rtasidagi bog'lanishlar va animatsiya algoritmlarini mustaqil yaratish qobiliyatini kuchaytirgan. Tajriba jarayonida o'quvchilarning birinchi darsning o'zidayoq mavzu mazmunini to'liq tushunib olganliklari kuzatilgan. Bu holat interaktiv vositalar boshlang'ich dasturlashni o'rgatishda an'anaviy dars metodlariga nisbatan ancha samarali ekanini ko'rsatadi.

Kompyuter arxitekturasini o'rgatishda 2021-yilda European Schoolnet tomonidan o'tkazilgan virtual modellashtirish tajribalari natijalariga ko'ra, kompyuterning ishlash jarayonini virtual muhitda modellashtirish orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlagan, balki protsessor, xotira, registrlar va buyruqlar ketma-ketligini chuqurroq anglash imkoniga ega bo'lganlar. Tajribada ishtirok etgan o'quvchilarning deyarli yarmi real kompyuterning ichki tizimini izchil tushuntirib bera olgan bo'lib, bu nazariy bilimlarning amaliy bilimga aylanganini tasdiqlaydi. Tarmoqlarni sozlash bo'yicha virtual amaliyotlar 2020-2023-yillarda Packet Tracer dasturi orqali o'tkazilgan tajribalar asosida tahlil qilinganda, tarmoq protokollari va router konfiguratsiyasi kabi murakkab mavzular aynan virtual muhitda o'rgatilganda samaradorlik yuqori bo'lishi aniqlangan. O'quvchilar real tarmoq qurilmalariga o'tganda yanada ishonchli va kam xatolik bilan ishlaganlar, bu esa virtual treningning muhim afzalligini ko'rsatadi. Robototexnika yo'nalishida Carnegie Mellon Robotics Academy tomonidan tashkil etilgan virtual laboratoriya tajribalarida virtual robotlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning algoritmlarni tezroq o'zlashtirgani, sensorlar bilan ishlash ko'nikmalarining mustahkamlangani qayd etilgan. Keyinchalik real



robotlarga o'tilganda ularning ish faolligi va aniqligi sezilarli darajada oshgan. Bu esa virtual mashg'ulotlar real amaliyotni osonlashtiruvchi samarali tayyorgarlik bosqichi ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistonda 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan zamonaviy tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktablarda 3D laboratoriyalar, Scratch, Python va robototexnika yo'nalishlari bo'yicha interaktiv mashg'ulotlar joriy etilganda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi barqaror o'sishga ega bo'lgan. Darsga qiziqishning ortishi, amaliy topshiriqlar sifatining yaxshilanishi va o'quvchilarning mustaqil ishlashga moyilligining kuchayishi ta'lim sifatida muhim ijobiy natija sifatida baholanadi. Maktab informatika ta'limida virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish so'nggi yillarda o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi o'quvchilarni zamonaviy axborot muhitiga moslashtirish, ularning algoritmik tafakkurini rivojlantirish va amaliy tajribasini mustahkamlash zaruratini kuchaytirmoqda. Virtual laboratoriyalar dasturlash, algoritmlarni modellashtirish va kompyuter arxitekturasini kabi murakkab jarayonlarni xavfsiz, tejamkor va vizual shaklda o'rganish imkonini beradi. Ayniqsa real jihozlar talab qilinadigan yoki laboratoriya xatolari yuqori xarajatga olib keladigan holatlarda virtual muhit eng maqbul yechim hisoblanadi. Interaktiv laboratoriyalar dars jarayonini faol o'zlashtirishga yo'naltirib, o'quvchining har bir bosqichdagi harakatini tahlil qiladi va tezkor natija qaytaradi. Bunday yondashuv o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil izlanish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Virtual simulyatsiyalar orqali shartli operatorlar, sikllar, massivlar va ma'lumotlar tuzilmalari kabi mavzularni tushuntirish o'quvchi ongida ko'rgazmali tasavvur hosil qiladi hamda nazariy bilimlarning tezroq mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, virtual laboratoriyalar o'quvchilarning o'zlashtirishini individuallashtirishga imkon beradi: har bir o'quvchi topshiriqlarni o'z sur'atida bajarishi, xatolarni takroran tahlil qilishi va murakkab bosqichlarni qayta o'rganishi mumkin. Bu, ayniqsa, dasturlashni o'rganishda muhim bo'lib, o'quvchini ijodiy fikrlashga va kod bilan tajriba o'tkazishga undaydi. Interaktiv muhitlarda o'qituvchi esa o'quvchilar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish va zarur hollarda tezkor metodik yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Amaliy natijalar mazkur vositalar o'quvchilarning motivatsiyasini sezilarli oshirishini ko'rsatadi. Shu asosda maktab informatika ta'limida virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanishning afzallik va kamchiliklarini aniqlash dolzarb masala sifatida namoyon bo'ladi.

1-jadval

Afzalliklari	Kamchiliklari
O'quvchilar uchun murakkab jarayonlarni xavfsiz va vizual ko'rinishda o'rganish imkonini beradi.	Ba'zi maktablarda texnik jihozlanish va internet sifati yetarli emas.
Amaliy mashg'ulotlarni ko'p marotaba takrorlash imkonini yaratadi.	O'qituvchilarning barchasi virtual laboratoriya platformalaridan foydalanishni yaxshi bilmasligi mumkin.
O'quvchilarda amaliy tajribani real vazifalar orqali mustahkamlashga yordam beradi.	Dasturiy ta'minotlarning litsenziyasi yoki narxi qimmat bo'lishi mumkin.
Dars jarayonini qiziqarli, interaktiv va motivatsion qiladi.	Ba'zi o'quvchilar texnologiya bilan chalg'ib qolishi mumkin.
Har bir o'quvchi o'z tezligida ishlashi va xatolarni qayta tahlil qilishi mumkin.	To'liq nazorat qilinmasa, natijalar noto'g'ri bajarilgan bo'lishi mumkin.
O'qituvchi uchun o'quvchilarning jarayondagi faoliyatini tez monitoring qilish imkonini beradi.	Virtual laboratoriyalarni yaratish va yangilash vaqt talab etadi.
Darsda faollik, mustaqil ishlash va kreativ fikrlashni oshiradi.	Elektr energiyasi yoki texnik nosozliklar dars jarayonini to'xtatib qo'yishi mumkin.
Resurslardan tejamkor foydalanish asbob-uskunalar xarajatlari kamayadi.	Ekran oldida uzoq vaqt ishlash o'quvchilarda charchoq keltirib chiqarishi mumkin.

Raqamli laboratoriyalar an'anaviy darslarga nisbatan o'quvchini faol ishtirokchi darajasiga olib chiqadi. O'quvchi jarayonda faqat kuzatuvchi emas, balki amalda ijro etuvchi sifatida qatnashadi, bu esa ta'limning faol pedagogika tamoyillariga mos keladi. Virtual muhitda real hayotdagi texnik qurilmalarni modellashtirish o'quvchi tasavvurini kengaytiradi va fanlararo bog'liqlikni mustahkamlaydi. Masalan, robototexnika, algoritmik modellashtirish va kiberxavfsizlik bo'yicha boshlang'ich tasavvurlar aynan shu laboratoriyalar orqali shakllantirilishi mumkin. Biroq ushbu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etish uchun o'qituvchining metodik tayyorgarligi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Raqamli vositalardan foydalanish jarayonida o'qituvchining rovida sezilarli o'zgarish yuz beradi: u endi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonini boshqaruvchi, tahlil qiluvchi va yo'naltiruvchi mutaxassisga aylanadi. Shuningdek, maktab infratuzilmasining texnik holati, internet tezligi, kompyuterlarning yangiligi hamda dasturiy ta'minotning barqaror ishlashi o'quv jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda,



virtual va interaktiv laboratoriyalar informatika ta'limini yangi bosqichga olib chiqib, o'quvchilarda zamonaviy raqamli muhitda samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ular ta'limni faqat nazariyaga emas, balki amaliy tajribaga asoslangan, zamon talablariga javob beradigan shaklga aylantiradi hamda informatika fanining o'quv jarayonidagi ahamiyatini oshiradi.

XULOSA

Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday laboratoriyalar o'quvchilarga murakkab axborot jarayonlarini vizual ko'rinishda tushunish, mustaqil tajriba o'tkazish, dasturlash amaliyotlarini xavfsiz va qulay sharoitda bajarish imkonini beradi. Virtual muhitlar o'quvchi faoliyatini mustaqillik va tajribaviy yondashuv bilan boyitsa, interaktiv vositalar darsga qiziqishni kuchaytiradi va o'zlashtirish darajasini oshiradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, raqamli laboratoriyalar o'quvchilarda algoritmik fikrlash, muammolarni yechish, tahlil va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Ularning an'anaviy ta'lim bilan uyg'un qo'llanilishi informatika fanining mazmunini yanada chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchining metodik tayyorgarligi, texnik bazaning yetarliligi va o'quv jarayonining to'g'ri tashkil etilishi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Virtual va interaktiv laboratoriyalarni keng joriy etish nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi, balki ularni zamonaviy raqamli kompetensiyalar bilan qurollantiradi. Ushbu yondashuv informatika ta'limining sifatini oshirish, dars jarayonini yanada samarali, qiziqarli va innovatsion qilishda katta salohiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayeva F. A. Virtual laboratoriyalarning ta'limdagi o'rni va uning o'quvchilarga ta'siri // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. ISSN: 2993-2769.
2. Dela Kruz, Jeyson P., Lejano, Marissa V., Martin, Jericho. Virtual Laboratories in Enhancing Experimental Skills and Scientific Understanding among High School Learners tajribasi // American Journal of Educational Research. ISSN (onlayn): 2327-6150.
3. Otepbergenov J. S. Informatika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Nukus davlat pedagogika instituti. Nukus, O'zbekiston. ISSN: 2992-9024 (onlayn). 2025, № 3.
4. Jo'rayeva F. B., Maslaitdinova S. Virtual laboratoriyalar va ularning o'qitish jarayonidagi ahamiyati // Pedagogical International Research Journal. ISSN: 2181-4027, SJIF: 4.995.
5. Saidova D., Begmatova M. Modellashtiruvchi dasturlarda pedagogik dasturiy vositalarni yaratish // International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming. – 2023.
6. Saidova D. E. Individualno-psixologik xususiyatlar va talabalarga virtual hamkorlik muhitida dasturlashni o'qitish // Ekonomika i sotsium. – 2023. – № 1-2 (104). – B. 635-638.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.